



# International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

*International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.*

## RESPUBLIKADA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA MILLIY JIHATLAR UYG'UNLIGIDA MUNOSIB SHAKLLANTIRISH

**Mirzayeva Layli Suxrabovna**

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

[layli.mirzayeva.2974@gmail.com](mailto:layli.mirzayeva.2974@gmail.com)

ORCID: 0009-0006-1230-0264

"Iqtisodiyot" kafedrası o`qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada respublikada korporativ boshqaruv tizimini xorijiy tajribalar asosida milliy xususiyatlar bilan uyg'unlashtirib takomillashtirish masalalari yoritilgan. Korporativ boshqaruvning samarali modeli orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, investorlar ishonchini oshirish hamda xalqaro standartlarga mos boshqaruv tizimini shakllantirish yo'nalishlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** korporativ boshqaruv, xorij tajribasi, milliy xususiyatlar, iqtisodiy barqarorlik, investitsiya muhiti, xalqaro standartlar, samarali boshqaruv.

### **Kirish.**

Aksiyadorlik jamiyatlarida takomillashgan korporativ strategiyani ishlab chiqish korporativ maqsadga erishishning sinalgan va istiqbolli usuli hisoblanadi. Korporativ strategiya korxonani rivojlantirishning o'zak yo'nalishlarini ifoda etuvchi, boshqarishning yuqori bo'g'ini foydalanadigan chora-tadbirlar majmuidir.[1]

Amaliyotda, korporativ strategiya aksiyadorlik jamiyatining turli bo'linmalarini bosh korporativ maqsad atrofida birlashtirish uchun ishlab chiqiladi. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ strategiya boshqaruv bo'g'inlari rahbarlarida strategik bashoratlash (tasavvur)ni shakllantiruvchi birdan-bir vositadir.[2] Korporativ strategiyaning samarasi aksiyadorlik jamiyatida mehnat unumdorligini o'sish darajasi bilan belgilanadi. Shubhasiz, kompaniyaga ko'plab yangi aksiyadorlarning jalb qilinishi samarali korporativ boshqaruv tizimini yaratish zaruratini keltirib chiqaradi. Chunki aksiyadorlarning aksariyati joriy boshqaruvda ishtirok etolmaydilar yoki bundan manfaatdor emas, lekin aksiya egalari kompaniya menejerlari, shuningdek yirik aksiyadorlar ularning ham manfaatlarini hisobga olishlarini istaydilar. Ishlab chiqarish jarayonini korporativ asosda rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi uchun yangi, o'rganilmagan muammo bo'lib, uni o'rganishda xorijiy davlatlarda korporativ boshqaruvni tashkil etish, uning jabhalari va mexanizmlarini, korporatsiyalar tashkiliy tarkiblari tomonidan texnologik qarashlarni qabul qilish, strategik yo'nalishda istiqbollashtirish va korporativ-aksiyadorlar

mablagdarini boshqarishni tashkil etish sohalaridagi mavjud tajribalardan keng foydalanishimiz lozim. [3]

Rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida korporatsiyalar muhim ahamiyatga ega. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, AQShning 100 ta yirik korporatsiyasiga mamlakat YaMMning 60 foizi, ishlab chiqarishda band bo'lganlarning 45 foizi hamda investitsiyalarning 60 foizi to'g'ri kelmoqda. Yuqorida keltirib odilgan ko'rsatkichlar shuni ko'satib turibdiki, bugungi kunda yirik korporatsiyalarning o'zni nafaqat Qo'shma Shtatlarda balki Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya va butun dunyoning boshqa barcha rivojlangan davlatlarida ham naqadar beqiyos va zaruriy ekanligini shuningdek, ta'sir doirasi qanchalik keng ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shu sababga ko'ra ham, biz barcha rivojlangan davlatlarning korporativ boshqaruv tizimidagi tajribalarini balkim dunyoda tan olingan korporativ boshqaruv modellarini tubdan o'rganib, ularning afzallik tomonlarini O'zbekistondagi korporativ boshqaruv modeliga tadbiq etishimiz zarur. [4]

Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi asosida aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini strategik rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar

O'ZBEKISTON	GERMANIYA	TAKLIF	KUTILAYOTGAN NATIJA
<b>Taftish komissiyasi</b>	Taftish komissiyasi mavjud emas	Taftish komissiyasi vakolatlarini ichki audit xizmatiga berish maqsadga muvofiq	<b>Ichki audit xizmatining faoliyati samaradorligini oshirib, kompaniyani rivojlanishiga olib keladi</b>
<b>Kuzatuv kengashi a'zolariga oylik maosh miqdori belgilanmagan</b>	Kuzatuv kengashi a'zolariga muayan oylik maoshi to'lanadi, bundan tashqari biznes reja ortig'i bilan bajarilgan taqdirda qo'shimcha rag'batlantiriladi	Me'yoriy hujjatlar orqali kuzatuv kengashi a'zolari belgilangan maoshini tartibga keltirish lozim	<b>Kuzatuv kengashi a'zolarining mas'uliyatini oshiradi</b>
<b>Amaliyotda kuzatuv kengashi a'zolariga nomzodlarni jamiyat spetsifikasidan kelib chiqqan holda tanlash tartibga qo'yilmagan</b>	Kuzatuv kengashi a'zolaridan 1/3 qismi mustaqil professional mutaxassislardan tashkil topgan	Kuzatuv kengashi tarkibiga sohani yaxshi biladigan mutaxassislarni saylash kerak	<b>Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarni vakolatli bo'lishiga olib keladi</b>
<b>Amaldagi qonunchilikka asosan kuzatuv kengashi a'zolari jamiyatda doimiy ishlashi mumkin emas</b>	<b>Kuzatuv kengashi a'zolarining 50% i ushbu jamiyat mutaxassis xodimlaridan tashkil topgan</b>	<b>Kuzatuv kengashining 1/3 qismini mazkur jamiyatning xodimlaridan tashkil topishi</b>	<b>Jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib kuzatuv kengashi qarorlarini qabul qilishga olib keladi</b>

Rivojlangan mamlakatlar tajribasini umumlashtirib, xalqaro miqyosdagi tendensiyalar bilan bir qatorda, O'zbekistonda korporativ boshqaruvning munosib tizimini shakllantirishni belgilab beruvchi milliy jihatlarni ajratish mumkin. Bular:

1. Aksiyadorlik jamiyatlarining ko'pligi. 2007 yil 1 iyul holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasida 1957 aksiyadorlik jamiyatlari ro'yxatga olingan. Shunga munosib tarzda uning ishtirokchilari va aksiyadorlarining faoliyati va manfaatlariga oid munosabatlarni boshqarish

zarurati oshadi. [5]

2. Ayni paytda kuzatilayotgan iqtisodiy o'sish yangi investisiyaviy resurslar manbalarini topishni taqozo etadi. So'nggi yillarda iqtisodiy o'sish sur'atlarining barqaror o'sishi kuzatilmoqda.[6] Shu bilan birga, qo'shimcha investisiyaviy resurslarni jalb qilmasdan uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlab bo'lmaydi. Mahalliy investorlar iqtisodiyotning real sektori ehtiyojlariga mos ravishda uzoq muddatli keng ko'lamli investisiyalarni kirita olmaydilar. Shuning uchun ichki investisiyalar ulushi nisbatan pastligicha qoladi, bu esa xorijiy investisiyalar hisobidan qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish zaruratini keltirib chiqaradi.[7]

3. Davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini kamaytirishni ko'zda tutuvchi boshqaruvni mahalliy lashtirish bo'yicha islohotlar. Islohotlar davlat boshqaruv funksiyalari va tuzilmalarini qisqartirish orqali davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini keskin kamaytirishga qaratilgan. Bunda iqtisodiyotni boshqarishning samarali bozor mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarblik kasb etadi.[8]

4. Xususiy lashtirishning sifat jihatdan yangi bosqichi. Strategik ahamiyatga ega bo'lmagan korxonalarini xususiy mulkka to'liq o'ikazish, shuningdek strategik ahamiyatga ega korxonalarining ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini eng past darajagacha qisqartirish ko'zda tutiladi. [9]

5. Korxonalarining katta qismini modernizatsiyalash zarurati. Ayni paytda iqtisodiyot real sektoridagi alohida korxonalar ishlab chiqarish fondlarining yarmidan ko'pi eskirgan. [10]

### **Xulosa va takliflar**

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, Atsiyadorlik jamiyatlari boshqaruv organlari va barcha manfaatdor shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni ichki samarali mexanizmlarni joriy etgan holda, korporativ boshqaruv tamoyillari asosida, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv kodeks qoidalariga rioya qilishni davlat boshqaruv organlari tomonidan nazorat qilib borish aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni rivojlanishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini davr talabiga mos ravishda muttasil takomillashtirib borishi zarur. Shunday qilib, korporativ boshqaruvning ko'pchilik umume'tirof etilgan tamoyillari milliy qonunchiligimizda o'z aksini topmoqda, ammo ularning amalga oshirilishi, jumladan sud orqali, shuningdek korporativ axloq an'analari hali shakllanish bosqichini boshidan kechirmoqda.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

[1] Sh. Mirziyoyev, "Prezident huzurida iqtisodiyot tarmoqlariga yo'naltirilgan imtiyozlar samaradorligi tahlili bo'yicha yig'ilish," *Xalq so'zi*, no. 01.11.2022.

[2] B. E. Hermalin and M. S. Weisbach, Eds., *The Handbook of the Economics of Corporate Governance*, vol. 1, pp. 1–736. Amsterdam: Elsevier, 2017. [Online]. Available: <https://www.sciencedirect.com/journal/the-handbook-of-the-economics-of-corporate-governance/vol/1/suppl/C>

[3] G. V. Savitskaya, *Analiz khozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatiya*. Minsk: Novoe znanie, 2021.

[4] A. A. Ruziyev, "Korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishda kuzatuv kengashi faoliyati," *Iqtisodiyot va ta'lim*, no. 3, pp. 45–53, 2023.

- [5] OECD, *G20/OECD Principles of Corporate Governance*. Paris: OECD Publishing, 2020.
- [6] Sh. M. Kudratov, “Milliy iqtisodiyotda korporativ boshqaruvning tashkiliy-huquqiy asoslari,” *TDIU ilmiy nashri*, no. 2, pp. 112–119, 2021.
- [7] International Finance Corporation (IFC), *Corporate Governance Methodology: Evaluation and Development Framework*. Washington, DC: World Bank Group, 2019.
- [8] M. I. Sharifkhodjaev, “Korporativ boshqaruv modellari va rivojlanish istiqbollari,” *Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*, vol. 4, no. 88, pp. 60–67, 2020.
- [9] B. Sh. Boboev, “Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv sifatini baholash uslubi,” *Korxonalarni boshqarishda zamonaviy yondashuvlar*, vol. 1, no. 2, pp. 22–29, 2021.
- [10] Q. Q. Nazarov and U. B. Ahmedov, “Institutsional islohotlar va korporativ boshqaruv: O‘zbekiston tajribasi,” *Samarqand davlat universiteti ilmiy to‘plami*, no. 1, pp. 98–105, 2022.